

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING
DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**XORIJIY MAMILAKATLARDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH
ILG'OR TAJRIBASI**

Tadjiyeva S.U,

Buxoro davlat universiteti, Marketing va menejment kafedrasi professori, i.f.n., Buxoro sh., stadjiyeva28@gmail.com

Husenova M.F.

Buxoro davlat universiteti Turizm(faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) yo'nalishi, 1 – bosqich magistranti, Buxoro sh., husenova.bsu@gmail.com

**ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖНОГО ТУРИЗМА В
ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ**

Таджиева С.У.

Бухарский государственный университет, профессор кафедры маркетинга и менеджмента, к.э.н., г. Бухара, stadjiyeva28@gmail.com

Хусенова М.Ф.

Бухарский государственный университет, факультет туризма (по направлениям деятельности), магистрант, г. [Бухарахусенова.bsu@gmail.com](mailto:Buxarahuсенова.bsu@gmail.com)

**DVANCED EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH TOURISM IN
FOREIGN COUNTRIES**

Tadjiyeva S.U.

Professor of the Department of Marketing and management, Bukhara State University, i.f.n, Bukhara, stadjiyeva28@gmail.com

Husenova M.F.

Bukhara State University, tourism (in areas of activity), master of Stage 1, Bukhara, husenova.bsu@gmail.com

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi bilan, turizm sohasi, ayniqsa yoshlar turizmi, jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Xorijiy mamalakatlardagi yoshlar turizmini rivojlantirishning ilg'or tajribasi, ularning madaniy almashinushi, ta'limiysi va ijtimoiy faoliyatini kengaytirishda muhim o'rinn tutadi. O'zbekiston kabi yoshlar aholisi soni yuqori bo'lgan mamlakatlar uchun bu boradagi ilg'or tajribalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar turizmi, 18 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida turli mamlakatlarni, madaniyatlar va tabiatni kashf etish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatlarni o'z ichiga oladi. Bu turizm turi, yoshlarga o'zlarining chegaralarini kengaytirish, yangi tajribalar orttirish va boshqa madaniyatatlarni chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi. Yoshlar turizmi, shuningdek, o'zaro tushunish va xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashda

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

muhim o'rinni tutadi. Bu turdag'i turizm, yoshlarni jahon sahnasida faol ishtirok etishga tayyorlaydi va ularning global muammolarga nisbatan tushunchasini kengaytiradi.

Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, bu mavzu bиринчи bo'lib Krippendorf[1] (1971) va undan keyin Cohen[2] tomonidan tilga olingan. 1987- yilda yosh sayyoohlар uchun turpaketlar taklif etila boshlandi, biroq ular ushbu segment ehtiyojlarini qondirish uchun mos emasligi isbotlandi. Ushbu harakatdan so'ng, tadqiqotchilar o'zлari yashayotgan mamlakatda yoki ular bilan aloqada bo'lган boshqa davlatlarda yoshlarning sayohat bozorini o'rgana boshladilar. 1990-yilda Hudman[3] hozirgi kunda biz bilgan yoshlar turizmi tushunchasini fanga kiritdi. Yoshlar turizmi ahamiyatini 2000 - yilga kelib, Horak .S va Weber .S Yevropaning yoshlar sayohatlari bozorini to'liq tadqiqot o'tkazgan holda o'rgandilar. Ularning fikricha: " Yoshlar turizmi 15 yoshdan 29 yoshgacha bo'lган yoshlar tomonidan amalga oshiriladigan barcha turistik tadbirlar deb ta'riflanadi.[4]"

Bizning fikrimizcha, "Yoshlar turizmi - maqsadli auditoriyasi 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lган shaxslardan tarkib topib, ularning dunyoni bilish, ta'lim olish, bilim oshirish, hayotiy tajribaga ega bo'lish, madaniy rivojlanish, qarindoshlarini ziyyarat qilish yoki ko'ngilxushlik uchun 24 soatdan ko'proq davom etadigan sayohatlarni o'z ichiga olgan turizmning bir turi hisoblanadi."

Iqtisodiy jihatdan, yoshlar turizmi, mehmonxona va transport sohalari kabi ko'plab tarmoqlar uchun muhim daromad manbai hisoblanadi. Yosh sayohatchilar ko'pincha yangi tajribalarni qidirishadi va bu esa ularni turli xil turizm mahsulotlari va xizmatlarini sinab ko'rishga undaydi. Bu holat, turizm sohasidagi innovatsiyalar va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Ijtimoiy jihatdan esa, yoshlar turizmi, turli madaniy va ijtimoiy muhitlarga duch kelish orqali yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Bu sayohatlar, yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi va ularni turli xil muhitlarda moslashuvchan bo'lishga o'rgatadi. Shuningdek, yoshlar turizmi orqali o'rnatilgan do'stliklar va aloqalar, madaniyatlararo tushunishni oshirishga va global muammolarga qarshi kurashishda hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yoshlar turizmi, shu tariqa, faqatgina iqtisodiy foyda keltiribgina qolmay, balki yoshlarni jamiyatning faol va mas'uliyatli a'zolariga aylantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu orqali, yoshlar o'zlarining chekllovlarini va imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, dunyoqarashlarini boyitadi va o'zaro hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirishga hissa qo'shadilar.

Yoshlar turizmi sohasidagi ilg'or tajribalarni ko'rib chiqishda, Yevropa Ittifoqi, Avstraliya, Kanada kabi davlatlar diqqatga sazovor. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari orasida "Erasmus+" dasturi, talabalar va yoshlar o'rtasida madaniy va ilmiy almashinuvni rag'batlantirishga qaratilgan. Ushbu dastur, yoshlar o'rtasida sayohat madaniyatini rivojlantirish va turli madaniyatlararo tushunishni oshirishga xizmat qiladi. Avstraliya va Kanada kabi davlatlar esa "Work and Holiday" dasturlari orqali yoshlarga ish bilan birga

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

sayohat qilish imkoniyatlarini yaratib berishgan. Bu tajribalar, yoshlar turizmini faqat dam olish emas, balki ta'lif va mehnat bilan uyg'unlashtirish modelini namoyish etadi.

Yoshlar turizmini rivojlantirishda ilg'or tajribalarga misol sifatida, interaktiv ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, sayyoqlik mahsulotlarini yoshlar talab va ehtiyojlariga moslashuvchanlik bilan taqdim etish kabi amaliyotlar kiritilgan. Bundan tashqari, yoshlarni jalg qilish maqsadida turli madaniy festival va tadbirlar, shuningdek ekstremal turizm kabi yangi turizm turlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu strategiyalar orqali yoshlar o'rtaida sayohat madaniyati keng tarqalmoqda va ularda yangi mamlakatlarni kashf etish istagi uyg'otilmoqda.

Yoshlar turizmini faol rivojlantirayotgan davlatlarda, bu soha iqtisodiyotning jadal o'sayotgan tarmoqlaridan biriga aylangan. Masalan, "Erasmus+" dasturi orqali Yevropada yuz minglab talabalar o'zlarining ta'limiylar va kasbiy ko'nikmalarini xalqaro darajada oshirishga muvaffaq bo'lishgan. Shuningdek, yoshlar turizmi orqali mehmonxona va transport sohalarida yangi ish o'rnlari yaratilmoqda, bu esa umumiy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shamoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yoshlar turizm o'rtacha 3-5%ni tashkil etmoqda. Bu, ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar va sayohat ilovalaridan foydalanishning oshib borayotganiga bog'liq. Biroq, bu sohaning rivojlanishida ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud, masalan, sayohat xarajatlarining yuqoriligi va viza cheklari kabi.

O'zbekiston, boy tarixiy va madaniy merosga ega bo'lgan mamlakat sifatida, turizm sohasida katta salohiyatga ega. Xorijiy davlatlarning yoshlar turizmi sohasidagi ilg'or tajribalari O'zbekiston uchun quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- madaniy almashinuv dasturlari. O'zbekiston madaniy va ta'lif almashinuv dasturlarini joriy etishi mumkin, masalan, Erasmus+ singari dasturlar asosida. Bu yoshlarga xorijiy tillarni o'rganish, boshqa madaniyatlarni chuqurroq tushunish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

- sayyoqlik mahsulotlarini diversifikatsiya qilish. Xorijiy davlatlardagi kabi, O'zbekistonda ham yoshlar uchun mo'ljallangan ekstremal turizm, madaniy tadbirlar va festivallar kabi turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish. Bu yoshlar orasida sayohat madaniyatini yanada ommalashtirishga yordam beradi.

- digital marketing va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish. Yoshlar o'rtaida sayohat qiziqishini oshirishda ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalarni qo'llash. Bu orqali O'zbekistonning turistik jozibadorligini global miqyosda targ'ib qilish mumkin.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirishda quyidagi qiyinchiliklar mavjud:

- yoshlar uchun turizm mahsulotlarining cheklanganligi. Yoshlarni jalg qiladigan, ularning ehtiyoj va qiziqishlariga javob beradigan turizm mahsulotlari va xizmatlari yetarli emas.

- sayohat xarajatlari. O'zbekistonda ko'plab yoshlar uchun sayohat xarajatlari hali ham yuqori.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlarni taklif qilamiz:

- hamkorlik dasturlarini rivojlantirish. Xorijiy davlatlar bilan madaniy va ta'lim almashinuvni dasturlarini rivojlantirish.
- yoshlarga mo'ljallangan sayyoqlik mahsulotlarini kengaytirish. Yoshlar qiziqishini hisobga olgan holda turizm mahsulotlari va xizmatlarini diversifikasiya qilish.
- sayohat subsidiyalari va chegaralangan byudjetli sayohatlarni targ'ib qilish. Yoshlar uchun sayohat xarajatlarini kamaytirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish.

O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirish bo'yicha quyidagi strategiyalarni taklif qilishimiz mumkin:

1. Startaplar va innovatsion loyihalar uchun grantlar. Turizm sohasida yangi g'oyalar va startaplar uchun grantlar ajratish, bu orqali yoshlar turizmini yangi bosqichga ko'tarish.

2. Xalqaro sayyoqlik bozorlarida O'zbekistonni targ'ib qilish. Xalqaro ko'rgazmalar va sayyoqlik yarmarkalarida O'zbekistonni faol targ'ib qilish.

Kutilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlar

Iqtisodiy ta'sir: Yoshlar turizmi sohasidagi o'sish, yangi ish o'rnlari yaratilishiga va mahalliy iqtisodiyotning jadal o'sishiga olib keladi.

Ijtimoiy ta'sir: Madaniy almashinuv va xalqaro hamkorlik orqali yoshlar o'rtasidagi o'zaro tushunish va hurmatni rivojlantirish, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro'sini oshirish.

Bu taklif etilgan strategiyalar, O'zbekistonning turizm sohasida, ayniqsa yoshlar turizmini rivojlantirishda katta yutuqlarga erishishini ta'minlashi mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiyotga, balki mamlakatning ijtimoiy tuzilishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING
DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Krippendorf, Jost. 1971. *Marketing et Tourisme*. Bern: Herbert Lang
2. Cohen, Erik. 1973. "Nomads from Affluence: Notes on the Phenomenon of Drifter-Tourism". *International Journal of Comparative Sociology* 14 (1-2): 89-103
3. Hudman, L.E. 2015. "Student International Travel". *Tourism Recreation Research* 2 (15): 41 – 45
4. Horak, Sinisa and Sanda Weber. 2000. "Youth Tourism in Europe: Problems and Prospects". *Tourism Recreation Research* 25 (3): 37-44
5. The power of youth travel. Report. V. 2 // Affiliate members report published by UNTWO and WYSE Travel Confederation. – 2016. – 38 p.
6. Youth Travel New Horizons IV 2018 Preview – Режим доступа: https://www.wysetc.org/wp-content/uploads/sites/19/2018/06/New-Horizons-IV_Preview.pdf (дата обращения: 05.05.2019).
7. Youth Travel New Horizons IV What the youth travel market is really about . – Режим доступа: <http://www.bizcommunity.com/Article/1/373/174662.html> (дата обращения: 05.05.2019).